

TEATR SAN'ATI RIVOJLANISHINING TARIXIY-NAZARIY ASPEKTLARI



Mahmud Rashidov

O‘zDSMI “Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati”
kafedrasi professori

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-07-13>

Annotatsiya: Bugungi kun o‘zbek teatrida sahnalashtirilgan spektakllar g‘oyaviy-badiiy jihatdan puxta, shaklan va mazmunan yaxlit bo‘lishi barobarida sahna qonuniylatlari asosida yaratilishi va eng asosiysi tomoshabinning estetik didini oshirish, ma’naviy ozuqa berish va zavq ulashishga xizmat qilishi zarur.

Kalit so‘zlar: Teatr san’ati, madaniyat, san’at, taraqqiyot, jadidlar, repertuar, ijtimoiy jarayon, spektakl.

Аннотация: Сегодня спектакли, поставленные в узбекском театре, должны быть идеально и художественно обоснованными, целостными по форме и содержанию, созданными на основе сценических законов. Главное, они должны повышать эстетический вкус зрителя, давать духовную пищу, служить разделению удовольствия.

Ключевые слова: Театральное искусство, культура, искусство, развитие, новые веяния, репертуар, общественный процесс, спектакль.

Abstract: Today, performances staged in the Uzbek theater must be ideologically and artistically sound, integral in form and content, created on the basis of stage laws. The main thing is that they must enhance the aesthetic taste of the viewer, provide spiritual food, and serve to share pleasure.

Key words: Theatre arts, culture, art, development, new trends, repertoire, social process, performance.

Jahondagi eng ommaviy va ta’sirchan san’at turlaridan biri bo‘lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezungulikka chorlab, ularning qalbida oljanob fazilatlar, go‘zal hiss tuyg‘ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

O‘zbek milliy teatr san’ati XX asrda professional truppadan tortib ulkan san’at cho‘qqisigacha bo‘lgan ishonchli yo‘lni bosib o‘tdi. U xalqimiz yaratgan boy madaniy merosning barcha ilg‘or jihatlarini rivojlantirish, jahon va rus mumtoz dramaturgiyasini o‘zlashtirish, boshqa respublikalar madaniyatlari bilan ko‘p tomonlama o‘zaro ta’sir asosida o‘z san’atining professional zaminini mustahkamlash uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘ldi. San’at hech qachon bugungi kundagidek ijtimoiy ahamiyat kasb etgan emas. Inson ruhiga ta’sir etishning eng jozibali shakllaridan biri bo‘lmish teatr san’ati shu jarayonda alohida o‘rin tutadi. Minglab tomoshabinlarning ruhiy olamiga chuqur kirib, uning dil torlarini cherta oladi, binobarin, ma’naviy tushunchalarining shakllanishida ishtirok etadi. Shak-shubhasizki, teatrning tomoshabinni tarbiyalashdagi ta’siri samarasi, uning g‘oyaviy-badiiy barkamolligi, spektakllarning ijtimoiy salmog‘i, ahamiyati bilan belgilanadi. Tomoshabinlarning estetik didi, madaniy saviyasi nihoyatda tez o‘sib bormoqda, ular sahnada hayotning shunchaki haqiqatga o‘hshash tasvirini emas, balki hayotiy jarayonlarini chuqur, umumlashma ifodasini ko‘rishni istaydilar. Zero, teatrning asosiy vazifalaridan biri kishilarga faqat estetik zavq berishdangina iborat emas. U tomoshabinlarni yuksak g‘oyaviy e’tiqod va axloqiy prinsiplar asosida tarbiyalashga da’vat etilgandir.

Bilamizki o‘zbek millatining milliyligi asrlar davomida rivojlanib, taraqqiy etgan, o‘ziga xos va ijtimoiy jihatdan rang-barang ma’naviy va nomoddiy merosida, milliy madaniyatida o‘z aksini

topgan. «Etnomadaniyat millatni shakllantirgan, etnoslar yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar yig‘indisi sifatida milliy madaniyatning yadrosini tashkil qiladi. Uning bosh funksional xususiyati etnoslar yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarni asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish, milliy o‘zlikni anglashga xizmat qilish, yoshlarda milliy g‘ururni, vatanparvarlik va xalqparvarlik tuyg‘usini shakllantirishdir». Milliy madaniyat va uning asosini tashkil etadigan etnomadaniyat xalqimiz yashagan geografik hudud, o‘lkamiz tabiat, hayot tarzining o‘ziga xos shart-sharoitlari, amalda bo‘lgan siyosiy hokimiyatlar ta’siri o‘laroq shakllangan, dialektik bog‘liqlikda rivojlangan, turli davrlarda ma’lum transformatsion jarayonlarni ham boshidan kechirgan. Milliylik xalqimizning urf-odatlari, an’analari, turli marosim va sayillar, maydon tomoshalari, kiyinish madaniyati, ro‘zg‘or xo‘jaligi, xalq og‘zaki ijodi va amaliy san’ati shakllarida o‘z xususiyatlarini namoyon etgan.

O‘zbek milliy teatrining tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. U qadimiy teatr, an’anaviy qiziqchi va masharabozlarning tomosha san’ati va XX asrning boshlaridan shakllanish jarayonini o‘tab, professional teatr san’ati darajasiga ko‘tarilgan milliy madaniyatimizni qamrab oladi.

XX asrda teatr san’atida kuzatilgan muammolarni bir qancha olimlar o‘rganishgan. Jumladan, “O‘zbek teatr tarixi uchun materiallar” kitobining muallifi Miyon Buzruk Solihov shular jumlasidandir. U bilan birga faoliyat olib borgan yana bir olimlarimizdan G‘ulom Zafariydir. U teatr tarixiga oid manbalar to‘plash, ilmiy izlanishlar olib borishga rahbarlik qilgan hamda ko‘plab ilmiy maqolalar yozgan.

Yangi o‘zbek teatri tushunchasiga maxsus bino, maxsus o‘rindiqlar joylashtirilgan tomosha zali, pardalar vositasida ochilib yopiladigan sahnali va unda ish ko‘radigan ijodiy jamoa – aktyor, rejissor, rassom, sozanda ahli va boshqaruvchilaridan tashkil topib, ma’lum vaqtida ishlab, sotilgan chiptalar asosida xalqqa tomosha namoyish etadigan tomoshaxona kiradi.

Professor T.Tursunovning ta’kidlashicha : “Bu tomoshaxona Turkistonning madaniy hayotiga begona bo‘lib, o‘lkani Rossiya istilosini qilib olganidan keyin “rus teatri” ko‘rinishida, bu yerga ko‘chirib keltirilgan rus zodagon va ziyolilari, harbiy xizmatchi va boshqa soha egalaridan tashkil topgan fuqarolarga xizmat qilish uchun kirib keldi”. Yangi teatr Rossiya ham o‘z vaqtida Yevropadan o‘tgan bo‘lib, davr o‘tishi bilan milliy teatr san’atiga aylanib, o‘zining namoyandalari – dramaturglar, rejissor va aktyorlari, rassom va tanqidchilari, katta teatr jamoalari bilan umumjahon teatr madaniyatining ajralmas qismiga aylanib, ko‘pgina boshqa xalq va davlatlar uchun havas manbaiga aylangan edi.

Albatta, oxirgi yillarda teatr san’atini turli aspektlarda o‘rganishga qiziqish kuchayganligini ijobjiy baholash kerak. Teatr ijtimoiy-madaniy hodisalar bilan uzviy bog‘liq va uning jamiyat hayotida tutgan o‘rnini tadqiq etishga intilish ham e’tiborga molik. Mustaqillik yillari o‘zbek teatrida tarixiy ajdodlar timsoli talqin etilgan spektakllarda falsafiy, psixologik hamda romantik uslub yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Ular asar qahramoni ulug‘ davlat arbobi, mutafakkir yoki ilm, ijod ahli vakililigi bilan bir qatorda, sahna asarida ularning oddiy inson sifatidagi o‘y-fikrlari, kechinmalariga katta ahamiyat beryapti. Asosiy persanaj ijrosiga psixologik yondashuvning rejissyorning kreativ topilmalari, ramziy ifoda vositalari bilan hamohang tarzda ifoda etilishi esa spektakllarning murakkab ko‘rinish olishiga sabab bo‘lyapti.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodirov M. Tomosha san’atlari o‘tmishda va bugun: uch jildlik/ - T.: Mumtoz so‘z, 2011. 335 b.
2. Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2013. –B. 16.
3. Solihov M.B. O‘zbek teatr tarixi uchun materiallar. – T.: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1935.
4. Tursunov T., XX asr o‘zbek teatri tarixi, - T., 2009. 18-b